



ZAMONAVIY TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENLIGI

Ergasheva Ba'rho Ziyaviddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU,

„Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedra o'qituvchisi

barnoergasheva90@gmail.com

Islomova Sabina Jamshidxon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim yonalishi,

1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali muallif zamonaviy tarbiyachining kasbiy va shaxsiy kompetenligi, shaxsiy va kasbiy sifatlari haqida fikr yuritadi. Tarbiyachining imidjiga avvalo uning muomala nutq -madaniyati kiradi. Tarbiyachi shunday bo'lishi kerakki, ba'zi holatlarda vaziyatdan chiqishni bilishi zarur.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, metod, rivojlanish, kasbiy kompetenlik, shaxsiy, ijtimoiy, sifatlar

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida maktabgacha talim tizimiga aloxida to'xtalib o'tganlar va bir kancha vazifalar bergilab berganlar Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish. 2022 — 2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish to'grisida aloxida to'xtalib o'tganlar.

Shu bilan birga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'plab isloxtlarda xam demokratik tamoyillar asosidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oliy ta'lim tizimida talabalarning mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini yanada takomillashtirish zarurati ta'kidlab o'tilgan. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish xar bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim kontekstida ko'p bosqichli uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan samarali innovasion modellarni yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda.



Bugungi ta'limni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kompetentsiyasini rivojlantirish va bu jarayonda quydagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- pedagog kadrlarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetentsiyalar va ko'nikmalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida sifatga urg'u berish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish;
- hamkorlikdagi ta'lim, loyihaviy va muammoli ta'lim elementlarini o'z ichiga olgan «tadqiqotlar orqali ta'lim» kontseptsiyasini amaliyotga keng joriy etish;
- ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- pedagoglarning innovasion g'oyalarni ishlab chiqish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus kurslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Aslida kompetenlik nima ? Kompetenlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik tadqiqotlar yordamida kirib kelish .Bu tushuncha noa'naviy vaziyatlar ,kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, noaniq vaziyatlarda ,ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanish ,izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik qilish tushuniladi . Kasbiy kompetenlik bu mutaxassis tomonidan alohida bilim ,malakakarning egallanishi emas ,balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha interaktiv bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutiladi .Kasbiy kompetenlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi : -murakkab jarayonlarda -noaniq vazifalarni bajarishda , bir -biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda -kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo'la olishda Ushbu pedagogik konsepsiyada keltirilgan fikr va mulohazalarda yo'nalish hamda takliflar va eng avvalo ma'lum bir davr ichida ta'lim -tarbiya berish faoliyatining sifat samaradorligini oshirish uchun qilinadigan ishlar sifatida ko'rish mumkin .Bugungi kunda tarbiyachining pedagogik kompetensiyalarini doimiy oshirib borishi ,bu eng avvalo bolani shaxsiy hayotga tayyorlash ,unda hayotiy muhim masalalarni o'zlashtirish ,boshqa insonlar bilan muloqot qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishda asosiy omildir . Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va rivojlantirishga qodir bo'lgan ijodkor ,mahoratli tarbiyachi tavsiya etiladi .O'qitish va tarbiyalash jarayonini bog'liq ravishda olib borish ,barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirish ,ularda yuksak



madaniy va ma'naviy saviyasini qaror toptirish hamda pedagogning yuksak shaxsiy sifatlari bilan namoyon bo'ladi, bu esa tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko'nikmalariga asoslanadi. Tarbiyachilar faoliyatining quyidagi talablar mazmunida insonparvarlik omili alohida o'rin tutadi. O'quv-tarbiya jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan shaxsiy sifatlarga quyidagilar kiradi: -insoniylik - oliyanoblik - mehribonlik - samimiyluk - halollik - pokizalik - xushchaqchalik - mas'uluyatlilik - talabchanlik - bag'rikenglik - moslashuvchanlik. Tarbiyachining kasbiy sifatlari: -pedagogik va psixologiya faniga doir bilimlarga ega bo'lish - o'z sohasini mukammal bilish - axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish - xorijiy tillarni bilish - o'z ustida ishlashi - o'zining imidji bo'lishi - har bir bolani diqqat bilan kuzatishi. Xulosa qilib aytish mumkinki, tarbiyachi bolani yangi hayot pog'onasiga tayyorlashdek muhim vazifani bajaradi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishidagi dastlabki bosqichi tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat bo'lgan tor doiradan tashqariga chiqadi va jamoat hayotiga qo'shiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlanishida ularning nazariy va amaliy tajribalariga asoslangan bilimlarni chuqur egallay bilishi bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.
3. Barno, E. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.
4. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 2(10), 118-122.
5. Muratova, M. (2023). PECULIAR ASPECTS OF WORKING WITH FAMILY IN THE FORMATION OF THE CULTURE OF LIFE SAFETY IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. *Science and innovation*, 2(B2), 593-596.